

4. Korpusdan ma'lumotni kontseptning lug'at ta'rifi bilan taqqoslashdagi qiyinchiliklar. Ularning qanchalik o'zaro bog'liqligi har doim ham aniq bo'lmaydi.

5. Vaqt o'tishi bilan ishning eskirish muammosi, kontseptlar o'zgarishi mumkin. Muntazam yangilanishlar talab qilinadi.

Zero, kontseptlarni korpusni tekshirish muammosi zamonaviy leksikografiya uchun dolzarbdir. Bu keng qamrovli ilmiy yechimlarni talab qiladi. Keyingi fasllarda matn korpuslari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish istiqbollari masalasiga batafsil to'xtaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Page R. What is conceptual analysis? // Beaney M. The Analytic Turn. – London: Routledge, 2011. – P. 108-138.

2. Hanks P. Definitions and Explanations. In The Last Word. International Journal of Lexicography. – Oxford: Oxford University Press, 2009.

3. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2010. – 288 с. – С. 155.

4. Попова З. Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2010. – 314 с. – С. 28.

5. Денисов П. Н. Единицы словаря. // Национальная специфика языка и её отражение в нормативном словаре. Отв. ред. Ю.Н.Караулов. – М., 1988. – С. 48-52.

O'ZBEK TILIDA FORS TILIDAN O'ZLASHMALARNING TEMATIK GURUHLARI

Nazokat IBRAGIMOVA
O'zJTU Ikkinchi xorijiy tillar
kafedراسi stajyor-o'qituvchisi

Annotasiya. Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi shu millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. Maqolada fors tilidagi o'zlashmalar, ularning kirib kelish sabablari va omillari o'rganilgan. O'zbek tilidan fors tiliga kirib kelgan sermahsul yoki kammahsul o'zlashmalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zlashma, so'z o'zlashtirish, grammatik moslashuv, leksik birliklar, tilshunoslik tarixi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin, yurtimizda olib borilayotgan islohatlar jarayonida "Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar

tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish"¹⁶⁵ ustivor vazifalardan biri sifatida belgilanishi ilm-fan va texnika sohalarining so'nggi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini boxabar etishda adekvat tarjimalarni amalga oshirish va buning uchun tarjimashunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlari kengaytirish va shu soha orqali yetuk tarjimonlarni tayyorlash vazifasi yanada dolzarblashtirilmoqda.

Har bir til, jumladan, uning lug'at tarkibi ichki va tashqi imkoniyatlar asosida rivojlanadi. L.P. Krisin so'z o'zlashtirishni bir tilda mavjud bo'lgan turli belgilarni boshqa tilga ko'chishi deya ta'riflaydi. Turli belgilar tushunchasi ostida tilni tashkil etuvchi darajalar, ya'ni fonologiya, morfologiya, sintaksis, leksika va semantika kabilar anglashiladi.¹⁶⁶ So'zlarning boshqa tillardan kirib kelishiga tashqi (tildan tashqari yoki ekstrolingvistik) va til ichki omillari sabab bo'ladi.

Tashqi omillar:

1) xalqlar o'rtasidagi mustahkam siyosiy, savdo-iqtisodiy, sanoat va madaniy aloqalar;

2) ba'zi bir turdagi maxsuslashtirilgan narsa yoki tushunchalarni ifodalash uchun, masalan, ilmiy-texnik rejalar, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy atamalar.

Til ichki omillari (ko'p hollarda ular tashqi omillar bilan bevosita yoki bilvosita bog'langan bo'ladi:

1) iboralarning sohalar bo'yicha moslashtirilishi ularning ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqib ma'no xilma-xilligini aks ettirishini talab etadi;

2) bir nechta so'zdan iborat ta'riflash uslubidan ko'ra, uning boshqa tildagi soddaroq ekvivalentidan foydalanishga bo'lgan moyillik.

So'z o'zi kirib borgan tilda grafik, ya'ni ko'rinishi, fonetik (orfoyepek), semantik, ya'ni ma'noviy jihatdan, shuningdek, morfologik va sintaktik tomondan assimiliyatsiyaga uchragan bo'lsagina, to'liq o'zlashtirilgan hisoblanadi. Turli tarixiy

¹⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрat номидаги мактаб -интернатида таширифидаги нутқи: Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhan-t-ra-ibrat-mazhm>.

¹⁶⁶ Крысин Л.П. Иноязычные слова в контексте современной общественной жизни // Русский язык в школе. - 1994. - №6. - С. 56-70.

davrlar mobaynida o'zbek tiliga boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib keldi. Bu o'zbek xalqining boshqa millatlar bilan iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalar olib borganligi va boshqalar bilan uzviy bog'liqdir.

Boshqa so'zlarni o'zlashtirish-zamonaviy til shakllanishining bir yo'li hisoblanadi. Til jamiyat talabi va ehtiyojiga uzviy bog'liq, shu sababli jamiyatdagi har bir o'zgarish tilda aksini topadi. Odatda so'z o'zlashtirishga asosiy sabab qabul qiluvchi tilda ma'lum bir maxsuslashgan atamaning maqbul ekvivalenti yo'qligi bo'ladi. Boshqa sabablariga ko'ra, o'zbek tilida ko'p so'zli ta'riflash, tildagi ifoda vositalarini ko'paytirishga bo'lgan zaruriyat va boshqalar. O'zlashtirish xususiyati va hajmi o'zbek tilining tarixiy rivojlanishi, ya'ni xalqaro sayohat, aloqa va ilmiy rivojlanishlarni, hamda buning natijasi o'laroq, o'zbek leksika va frazeologiya bazasini boshqa tillardan kirgan so'zlar bilan yangilanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Chet tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'z yoki ibora o'zbek adabiy tili va dialektizmi tarixi teran anglashga yordam beradi.

Forscha va arabcha so'zlar o'zbek tilidagi o'zlashtirilish jarayonining ilk bosqichi hisoblanadi. Ular mazkur tilga turli manbalar orqali kirib kelgan. Shuni ta'kidlash joizki, ko'plab forscha so'zlar eron bilan bo'lgan o'zaro iqtisodiy, harbiy, savdo va boshqa aloqalar natijasida turli tushuncha va atamalarni ifodalash maqsadida o'zbek tili leksikasiga kiritilgan.

Xuddi boshqa tillarda uchragani kabi, zamonaviy o'zbek tilidagi so'zlarning ma'lum bir qismini aynan chet tillardan o'zlashtirilgan so'zlar tashkil etadi. Bu to'laligicha holis holat, zero mazkur o'zlashtirish jarayoni hayotiy zaruriyat mahsulidir.

So'z o'zlashtirish - bu biror bir g'ayri til tizimidan boshqa bir tilga muloqot natijasida so'z birikmalari va grammatik belgilarning o'tishi.

Tilshunoslik tarixida to'laligicha boshqa tillardan ajralgan va o'zgarishga uchramagan tilni uchratish amrimahol. Har bir rivojlanish paytida boshqa tillar bilan o'zaro munosabatga kirishadi va ular bir-biriga ta'sirini o'tkazadi. I.A.Boduyen de Kurtunening yozishicha, "Sof, toza til birligi bo'lishi mumkin emas"¹⁶⁷.

¹⁶⁷ Бодуэн де Куртенэ И.А. О смешанном характере всех языков // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Наука, 1963. - Т. 1. - С. 362.

Har qanday til leksikasida ijtimoiy voqeyelikdagi o'zgarishlarga aloqador bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalashning yo'li sifatida so'z o'zlashtirish jarayoni ko'riladi.

O'zbek xalqi qadimdan boshqa millatlar bilan turli, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va tijoriy kabi aloqalar olib borgan. Bu munosabatlar natijasida tilga turli davrlarda har xil sababga ko'ra kiritilgan yangi so'zlar juda ko'p. Boshqa leksikani qabul qilish - bu murakkab jarayon. Bu shuningdek uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning natijasida turli tizimga ega tillar o'zaro munosabatga kirishadi.

Odatda, so'z o'zlashtirish u yoki bu tilda boshqa tillardan kirgan so'zlar miqdorini aniqlash maqsadida olib boriladi. O'zlashtirish uslubiga ko'ra, mazkur so'zlarning turlari ko'p (og'zaki yoki yozma o'zlashtirish) kelib chiqishi (qaysi tildan o'tgan), ijtimoiy yoki sohaviy farqlanishi, tarkibiy o'ziga xosliklari (kalka, konversiya holatlari, ma'noning o'tishi va shu kabilar). So'z o'zlashtirish - bu til boyligini oshirishga hizmat qiluvchi leksik yoki boshqa elementlarning bir tildan boshqasiga o'tishidir. Til elementlari tarkibi va tabiatini belgilovchi umumiy mezonlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqa tillar bilan bo'lgan ilk munosabatlarda u yoki bu tushunchalarni ifodalash imkonini beruvchi belgilar o'zaro hizmat qiladi.

Fors tilidan kirib kelgan so'zlar asosan kishilar ismi, yoki diniy atamalardir (خدا -[xōdā]-, فرشته -[ferešte] نماز -[namāz] - درفش [darveš] va boshqalar), ular orasida ijtimoiy munosabatlarni anglatadigani ham uchraydi (دوست-دushman [dust-dōšman], [vatanparvar] وطنپرور va h.k.zo.) Shuningdek, کتابخانه -[ketābxāne] “kutubxona”, حاکمخانه -[xākemxāne] «sud binosi», تجارتخانه -[tejāratxāne] «savdo uyi», - شیفابخانه [šefāxāne] - شیفابخانه “shifoxona” va boshqalar kabi qator o'zlashtirilgan so'zlar bor. Yana ta'kidlash mumkinki, o'zbek tili grammatikasi belgilari ham faol kirgan.

Masalan گَر (gar) - سوداگر [savdāgar] «savdogar»; خِزْمَتْ-کار (kār) - [xezmatkār] «xizmatkor, ishchi»; دَر (dar) - خِکْمَدَار [xōkmdar] “hukmdor”, خبردار [xabardār] “xabardor” گیر (gir) - جهانگیر [jaxāngir] «jaxongir»; یَسْتان [stan]- هندستان [xindestān] [خانه xāne] - عبادتخانه [ebodatxāne] “ibodatxona” va boshqalar.

Zamonaviy o'zbek tilida qo'llaniladigan forsha so'zlarni biz quyidagi tematik guruhlariga ajratamiz:

- 1) bog'dorchilik, gulchilik va texnik madaniyat bilan bog'liq so'zlar - باغچه [bāğče] - "bog'cha", نرگیز [nargiz] - "nargiz", حیار [xiyār] - "bodring va boshqalar.
- 2) xo'jalik va uy-ro'zg'or anjomlari - دستمال [dastmāl] - "sochiqcha", پرده [parde] - "parda", سرکه [serke] - "uksus".
- 3) madaniyat, adabiyot, san'at va tijoratga doir leksika - بازار [pāk] - "toza", بازار [bāzār] - "bozor", دانه [dāne] - "dona", داستان [dāstān] - "doston" va boshqalar.
- 4) davlat boshqaruviga doir va harbiy terminologik so'zlar - پایتخت [pāytaxt] - "poytaxt", شهر [šahr] - "shahar" va boshqalar;
- 5) ta'lim-tarbiya va ish yuritish sohasida - استاد [ōstād] - "ustoz", کاغذ [kāğaz] - "qog'oz", دفتر [daftar] - "daftar" va boshqalar.
- 6) jonivorlar va qushlar nomini ifodalash uchun - جانئور [jānevar] - "jonivor", میمون [meymun] - "maymun", خیوان [xeyvān] - "xayvon" va boshqalar.
- 7) diniy tushuncha va atamalarni ifodalash uchun - خدا [xōdā] - "allax", پیغامبر [payğambar] - "payg'ambar", روزه [ruze] - "ro'za" va boshqalar.
- 8) ba'zi bir geografik nomlar - زمین [zamin] - "yer, zamin", چشمه [čawme] - "chashma, buloq" va boshqalar.
- 9) holat, istak, his-tuyg'u va odamlar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydigan so'zlar - درد [dard] - dard, بخت [baxt] - baxt, شاد [wād] - shod, xursand va boshqalar.
- 10) erkak va ayol shaxs ismlari - گلنار [Gulnār] - "Gulnora – anor guli", گلنار [Gulnāz] - "Gulnaz – gul kabi nozik", دلشاد [Delwād] - "quvnoq, sho'x", آزاد [ozād] - "ozod" va boshqalar.

Ma'lumki, semantika (semasiologiya) - bu leksik birliklar ma'nosi va ulardagi ma'noviy o'zgarishlarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. O'zbek tiliga turli davrlar mobaynida kirib kelgan forsha so'zlarni ko'rib chiqish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi: o'zlashtirilgan forsha so'zlar tuzilishi o'zgarishga uchramay qolmagan;

-faqatgina ma'lum bir turdagi so'zlar(asosan bir ma'noli) o'zining ilk semantikasini saqlab qolgan اشنا دخ [āwnā] oshna, اگر [agar] agar, با [baxā] baho, دوست [dust] do'st, شاد [wād] shod va boshqalar;

Ikkinchi holatda ma'no torayishi sodir bo'lgan, ya'ni ko'p ma'noli so'zlar ko'pincha bitta ma'nosida o'zlashtirilgan, masalan: fors tilidagi zamon so'zi زمان [zamān] fors tilida 3 xil ma'noni anglatadi:

- 1) vaqt, davr;
- 2) daqiqa, soat;
- 3) falsafa, muhit, borliq asosiy shakllari, taqdir.

O'zbek tilida mazkur so'z faqatgina birinchi ma'nosida ishlatiladi.

تماشا [tamāwā] “tomosha” fors tilida 3 xil ma'noda ishlatiladi: 1) tomosha; 2) olamon; 3) kuzatish.

So'z o'zgarish nuqtai nazaridan shuni aytish mumkinki, ko'plab forsiy so'zlar o'z tilidagi(forscha) mavjud grammatik va boshqa qoidalarga amal qiladi. Fors tilidan kirib kelgan so'z va atamalar din, ta'lim, davlat boshqaruv, filologiya, xo'jalik, shaxs nomlari kabi sohalarga doirdir.

Forsiy so'zlarning leksik-ma'noviy tegishliligi shuni ko'rsatadiki, ularni o'zbek tilida qo'llab bo'lmaydigan yopiq sohaning o'zi deyarli yo'q. Tilshunoslar ilgari suradigan fikrga binoan, aynan forsiy so'zlarning o'zlashtirilishiga asosiy sabab - bu o'zbek xalqi yashaydigan hududdagi ikkitillik natijasi.

Forsiy so'zlarning kelib chiqish tahlili bir qator ekstralingvistik omillar ta'sirida fors va o'zbek tillaridagi til bog'liqliklari anchayin tezkor bo'lgan. Bu o'zbek tilidagi leksik birliklarining miqdor va sifat darajasida aks etadi. O'zbek tilida o'zlashtirilgan so'zlar tahlili forsiy so'zlarning fors tiliga kirib kelishini barcha til omillari va darajalari o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida qarashni taqozo etadi. Agar tilda o'z etimonlar talaffuzini to'liq yoki qisman saqlagan holda so'z o'zlashtirish holati sodir bo'lsa, qabul qiluvchi tilning grammatik qoidalariga bo'ysunishi kuzatiladi. Funksiyalashish jarayonida o'zlashtirilgan so'zlar keyingi morfologik tuzatishlarga uchraydi. Til tizimi orqali so'z o'zlashtirishdagi eng muhim holat - bu so'zning to'liq assimilyatsiyasi emas, balki mazkur til birligining yangi grammatik sharoitdagi semantik rivojlanishi muhimroq hisoblanadi.

Forsiy so'zlar faol ma'noviy xarakteriga ko'ra quyidagi xususiyatlarga ega:

a) semantik faol soʻzlar umumiy mazmunga ega va shu asosida ular oʻzlashtirilgan tilga yangi til funksiyalarini olib kiradi va samarali oʻzlashtirgan hisoblanadi;

b) manoviy passiv soʻzlar tilning belgilash xususiyatini kengaytirishga qodir emas, ularning qabul qilingan tilda doimiy qoʻllanilishiga qaramasdan oʻzlashtirilmagan hisoblanadi.

U yoki bu soʻz oʻzlashtirilishining sabablari turli xil. Ular oʻzlashtirish va uning funksiyalarida solishtirma qiymatga ega, shuningdek, mazkur soʻzlar uslubiy cheklamaydi yoki aksincha uslubiy cheklaydi. Agar til leksik tizimida oʻzlashtirishga doir kamida bitta asos boʻlsa ham mazkur tilda soʻz oʻzlashtirish hodisasi belgilanadi. Asosiy faktlarni esa quyidagilar tashkil etadi:

- Yangi hodisa yoki narsalarni nomlashga boʻlgan ehtiyoj;
- Soʻz oʻzlashtirish eski birikmadagi koʻpsoʻzlilik yoki koʻp maʼnolilikni bartaraf qilish, mavjud tushunchani aniqlashtirish yoki tafsillash maqsadida sodir boʻladi;
- Oldingi birikma oʻrniga boshqa soʻzni qoʻllash;
- Qabul qiluvchi tilda muqobil tushunchaning yoʻqligi.

Shunday qilib, mazkur izlanish shuni koʻrsatadiki, soʻz oʻzlashtirish odatda fors tilida alohida obyektlari va hususiyatlari yetarlicha ogʻzakilashmagan, mukammal shakllanmagan maʼnoviy sohalarda paydo boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018 yil 5 martdagi Namangan viloyati Toʻraqoʻrgʻon tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab -internatiga tashrifidagi nutqi: Elektron resurs: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhan-t-ra-ibrat-mazhm>.

2. Крысин Л. П. Иноязычные слова в контексте современной общественной жизни // Русский язык в школе. - 1994. - №6. - С. 56-70.

3. Boduen de Kurtene I.A. O smeshannom xaraktere vsex yazыkov // Izbrannyye trudy po obshchemu yazыkoznanuyu. - M.: Nauka, 1963. - T. 1. - S. 362.

4. Ivanov V. B. Uchebnik persidskogo yazыka. M.: ISAA pri MGU, 2000.-Ch. II.- 156 s.

5. Krisin L. P. Sociolingvisticheskiye aspekty izucheniya russkogo yazыka. M.: Nauka, 1989. - 189 s.